

BADIIY TASVIR VOSITALARINING MAQOLLARDA QO'LLANISH XUSUSIYATLARI

Uralova Odina Orifjanovna

Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada maqollarda uchraydigan badiiy san'atlar, ularning o'rganilishi, tadqiqi, yondosh hodisalardagi o'rni haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: metafora, sinekdoxa, litota, mubolag'a, oksimoron, ellipsis, allegoriya, meyozis, evfemik litota, metonimiya.

Annotation. This article provides information about the artistic arts found in proverbs, their study, research, and their place in related events.

Key words: metaphor, synecdoche, litota, exaggeration, oxymoron, ellipsis, allegory, meiosis, euphemistic litota, metonymy.

Tasviriy vositalar (badiiy san'atlar) — nutqning ta'sirchanligi, obrazlilik va ifodaliligini oshiruvchi uslubiy usullar bo'lib, ular so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llanishi orqali namoyon bo'ladi. Ya'ni so'zlarga uslubiy bo'yoq berish orqali amalga oshiriladi. Ko'chma ma'noda qo'llanilgan so'zlarning umumiy nomi trop (ko'chim) deb yuritiladi. Ko'chim (ma'no ko'chishi) — narsa-hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik, bog'liqlik yoki yaqinlik asosida bir so'zning ma'nosi ikkinchi bir predmetga ko'chishi, ya'ni so'zning ko'chma ma'noda qo'llanilishidir.

Troplarning metafora, metonimiya, sinekdoxa, epitet, taqqoslash, ironiya, kinoya, personifikatsiya, simvol, litota, mubolag'a, evfemizm, allegoriya, oksimoron kabi turlari mavjuddir. Ko'chimlarning asosida ikki narsa yoki tushunchani qiyoslash yotadi, ya'ni ikki narsa yoki tushuncha o'rtasidagi muayyan munosabat (o'xshashlik, umumiylik, aloqadorlik kabi) asosida tasviriylik, ifodalilik, aniqlikni kuchaytirish maqsadi bilan ulardan birining nomi ikkinchisiga ko'chiriladi⁹.

“Trop” atamasi yunoncha τρόπος (tropos) sozidan kelib chiqqan bo'lib, “burilish, o'zgarish” ma'nolarini anglatadi. U τρέπειν (trepein) fe'lining ildizi bilan bog'liq bo'lib, “burmoq, yo'naltirmoq, o'zgartirmoq” degan ma'nolarni bildiradi. Shu sababli, bu atama metaforik ma'noda, jumladan, metaforik tilni ifodalash uchun ishlatiladi. O'zbek tilida esa ko'chimlarning lingvistik jihatlari ko'proq semantik va stilistik nuqtai nazardan tadqiq qilingan. O'zbek filologiyasida A. Mo'minov, N. Mahmudov kabi olimlarning ishlarida metafora va metonimiyaning o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Xususan, N. Mahmudovning asarlarida o'zbek tili leksikasidagi semantik o'zgarishlar batafsil o'rganilgan¹⁰.

Metafora (yunoncha *metaphora* — ko'chirish) — narsa, hodisa yoki tushunchalarning shakli, rangi, hajmi yoki funksiyasi o'xshashligi asosida bir so'z ma'nosini boshqasiga ko'chirish usuli, badiiy ko'chim turi. U majoziy ma'no yaratib, nutqqa obrazlilik va ta'sirchanlik beradi. Masalan, *kitob-bilim bulog'i*. Ushbu maqolda kitob buloqqa o'xshatilmog'da. Harakat-holat, belgi-hususiyat ma'lum bir asosga ko'ra

⁹ Mahmudov N., Odilov Y., Ziyodullayeva G., O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun darslik. –Toshkent, 2018, 79-bet.

¹⁰ Salixova N. Ingliz va o'zbek tilida ko'chimlarning tadqiq darajasi. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti, 2025,24b

boshqa harakat-holat, narsa-buyum, belgi-hususiyatning nomi sifatida qo'llanadi. Bunda bir leksema ma'no ko'chishi asosida bir necha predmetlarni nomlab keladi. Shu yerda ko'chma ma'no bilan omonim so'zlarni adashtirmaslik lozim. Omonim so'zlar o'rtasida ma'no yaqinlik bo'lmaydi. Bir xil shakldagi bir necha so'zlardir. Ko'chma ma'nodagi so'zlar esa bir so'zning turli ma'nolaridir.

Mohiyatga taalluqli belgini ajratib ko'rsatish barobarida, metafora gnoseologik maqsadlarga yo'l beruvchi umumiy bilimlarga ishora qiladi, insonning insoniyligini belgilovchi ruhiy dunyosi – "ko'rinmas olami"ga aloqador bo'lgan belgi anglatuvchi leksikaning shakllanishiga xizmat qiladi. Metaforaning "yaratuvchanlik" qobiliyatiga ilmiy uslubda ehtiyoj nihoyat darajada katta bo'lib, ilmiy konsepsiyalarni yangi terminlar bilan atashda muammo tug'ilganida metaforalarga tayaniladi. Metaforik usulda hosil qilingan terminlarning lisoniy iste'moldagi qulayligi, tilda tejamkorlikni yuzaga keltira olishi hamda xotiraga ortiqcha yuklama bermasligi fanda isbotlangan. Metaforik terminlar fikrni ifodalash va ilmiy nazariy bilimlarni kengaytirish uchun zarur. Bu singari terminlar qiyos etilayotgan ikki obyekt o'rtasidagi sifatiy belgilarni mantiqiy aloqadorlikda bog'laydi. Bunda metaforik terminlar negizidagi taqqoslanayotgan obyektlar: shakl, rang, xil-xususiyat, miqdor-hajm va vazifaviy o'xshashlik munosabatiga kirishadi. Metafora lisoniy tizimning alohida olingan birligi emas, yaxlit tizimlarni tashkil qilgan holda lisonning makrotizimlariga daxl qiluvchi tafakkurning lingvomantiqiy hodisasidir¹¹.

Metaforalardan foydalanish nuqtani qisqa, ta'sirchan qiladi va ifodalab bo'lmaydigan ayrim narsalarni ifodalashga yordam beradi. O'zbek maqollarida ham metaforalardan unumli foydalanilgan. Quyida shunday maqollarga misollar aytish mumkin: *Ona yurtning-oltin beshiging* (ona yurt oltin beshikka o'xshatilgan, ya'ni beshik-inson tug'ilganda ishlatiladigan buyum, oltin esa qimmatbaho, aziz demakdir). *Ona yurtning omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas.* ("somon rang" insonning xasta yoki qiyin ahvoldagi holatiga qiyoslagan. Somon-sarg'ish narsani anglatadi).

Maqollarda metafora va metonimiya haqida tadqiqot olib borgan ko'plab olimlar mavjud. Ular orasida quyidagilarni eslatib o'tish mumkin: George Lakoff va Mark Jonsonlarning "Metaforalar biz yashaydigan dunyo" kitobi metafora va metonimiyaning til va fikrlashda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Ularning nazariyasi maqollarni tahlil qilishda ham qo'llanishi mumkin, chunki maqollar ko'pincha metafora va metonimiya asosida qurilgan bo'ladi¹².

Metonimiya – ikki tushuncha o'rtasidagi yaqinlikka asoslangan o'xshashsiz ko'chim. Metonimiyada biror narsa yoki voqea-hodisaning nomi boshqasiga ko'chiriladi, biroq bu nomlash narsalar o'rtasidagi o'xshashlikka emas, balki ular o'rtasidagi yaqinlikka, aloqadorlikka asoslanadi.

Metonimiya – yunonch "meta" – qayta, "anoma" – nom deganidir. Metonimiya ham yangi ma'no hosil qilish jarayonidir va u polisemiyaning bir ko'rinishidir. Metonimiyaning shakllanishida kontekst muhim ahamiyat kasb etadi. Kontekstdan tashqarida ayrim metonimik birliklar oddiy nom sifatida qabul qilinishi mumkin. Metonimiya so'zlovchi va tinglovchiga oson tushuniladi. Ya'ni metonimiya faqat

¹¹ Maxmaraimova Sh. O'zbek tili metaforalarining antroposentrik tadqiqi: Filologiya fanlari doktori (Des) diss, avtoref. - Самарқанд, 2020.

¹² Choriyeva I., Tibbiy leksika asosida shakllangan ingliz va o'zbek maqollarida metafora va metonimiya., Tamaddun nuri jurnali, 2024. 10 (61), 68-b. TAMADDUN NURI jurnali/journal THE LIGHT OF CIVILIZATIO

semantik hodisa emas, kommunikativ vosita hamdir. Masalan, *o'n sakkizga kirmagan kim bor*. Ushbu misolda o'n sakkizga deganda o'n sakkiz yosh nazarda tutilmoqda.

Tilshunos K.A.Levkovskaya ko'chma ma'no hosil qiluvchi so'zlarni faqat metonimiya deb tushunadi: N.M.Shanskiy esa ko'chma ma'noli so'zlarni uch turga 1) o'xshashlik (metafora) 2) yondoshlik (metonimiya) 3) vazifadoshlikka ajratib o'rganadi. O'zbek tilshunosi O.Azizovning "Tilshunoslikka kirish" darsligida esa sinekdoxani metonimiyaning bir ko'rinishi sifatida ko'rsatiladi. Demak, yuqoridagi asarlarda, shuningdek, biz kutgan ayrim manbalarda ham ko'chma ma'no hosil qiluvchi so'z yoki so'z birikmasi haqida fikr yuritilganda asosiy metafora va metonimiya e'tirof etilgan. Sinekdoxa esa ko'chma ma'no hosil qiluvchi ikkinchi hodisa sifatida o'rganiladi va asosan u metonimiyaning bir turi sifatida qaraladi va ba'zan unga qo'shib yuboriladi¹³. Masalan, *Til topgan til bilan ishni bitiradi* ("til" deganda *so'zi* bilan ishni bitiradi demqochi. So'z va tilning bir-biriga aloqasi mavjudligi uchun aloqadorlik asosida ma'no ko'chgan). *Qalam qudrati – dushman kuchidan kuchli* ("Qalam" ilm yoki yozuv ma'nosida ishlatilmoqda. Ushbu maqolda ham aloqa mavjudligi uchun metonimiya deyish mumkin).

Sinekdoxa deb butun bo'lak munosabatiga asoslanuvchi ma'no ko'chishga aytiladi. Adabiyotlarda "ko'plik o'rnida birlik yoxud birlik o'rnida ko'plik shakllarini qo'llash yo'li bilan ham sinekdoxalar yaratish mumkin"¹⁴ligi aytilgan. Daraxtlar sarg'aydi, olma gulladi, qo'limni kesib oldim birikmalarida butunning nomi bilan bo'lak; har ishga burnini suqmoq, tirnoqqa zor, jamoaning qo'li baland keldi kabi birikmalarda qismning nomi bilan butun ifodalanyapti. Badiiy nutqda sinekdoxadan ixchamlilik va ifodalilikni ta'minlash maqsadida foydalaniladi¹⁵.

Sinekdoxa "sinekdohe" – birga anglamoq deganidir¹⁶. Quyidagi ko'rinishlari mavjuddir: qism nomini butunga ko'chishi: *Yegan og'iz uyalar* (Og'iz so'zi orqali inson nazarda tutilmoqda. Og'iz inson tanasining bir qismi hisoblanadi); butun nomining qismga ko'chishi: *Besh qo'l barobar emas*. (Qo'l so'zi orqali barmoq nazarda tutilmoqda. Chunki insonda besh qo'l bo'lmasligi ham buni isbotlab beradi. Maqolning umumiy ma'nosi esa hamma odam bir xil emas. Shunga qiyosan, barmoqlarning teng emasligi qiyoslanmoqda).

"Litota" atamasi yunoncha "kichiklik" yoki "me'yoriylik" tushunchasidan kelib chiqqan bo'lib, adabiy asarlardagi gaplar, iboralar va shunga o'xshash narsalarni yumshatish uchun ishlatilgani bois turli tasviriy yoki nutqiy ifodalar bilan almashtirib yuborish holatlari kuzatiladi. Ayniqsa uning evfemik, metaforik tabiatli ekanligi ko'p ilmiy tadqiqotlarda ta'kidlanadi. Aslini olganda esa, har qanday tasviriy ifoda, agar u yumshatishga, muayyan belgini kichraytirishga xizmat qilsa litotik tabiatli deb qaralishga loyiq. Faqat uning yumshatishga qaratilgani evfema bilan, o'xshatishga qaratilgani metafora bilan, butunni qism bilan atashga qaratilgani esa sinekdoxa bilan chalkashtirib yuborilishiga olib keladi. Shu boisdan ularning chegarasini belgilash, yondosh hodisalar sirasidagi o'rnini aniqlash dolzarb vazifalardandir.

Personifikatsiya (jonlantirish) — jonsiz narsalar, tabiat hodisalari yoki mavhum tushunchalarga insoniy xususiyatlar (gapirish, harakat qilish)ni ko'chirish orqali badiiy

¹³ Кўнғиров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 12-109 бетлар.

¹⁴ Yo'ldoshev M., Muhamedova S., Saparniyozova M., O'quv qo'llanma. – Toshkent: 2021, 133-b.

¹⁵ Yo'ldoshev M., Muhamedova S., Saparniyozova M., O'quv qo'llanma. – Toshkent: 2021, 133-b.

¹⁶ Shermatova S., O'zbek tilida ma'no ko'chish usullari: metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik., 2023, 960-bet

obraz yaratish usuli. Bunda narsalar xuddi tirik insondek tasvirlanadi, bu esa matnga hissiylik va ta'sirchanlik bag'ishlaydi. Personifikatsiya metaforaning bir turi hisoblanadi. Metafora keng badiiy tasvir vositasidir. Personifikatsiya esa uning bir tarmog'idir. Personifikatsiya ijodiy fikrlash, obrazli tafakkur va madaniy idrokni shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Masalan: *Odamning yuzi quyoshni uyaltirar* – uyaltirar so'zi personifikatsiyani yuzaga keltirgan. Bu maqolda esa quyoshning uyalishi jonlantirish san'atini hosil qilgan. *O'rdak o'ziga oro bersa ham, oqqush bo'lolmas* – oro berish holati o'rdakka nisbatan ishlatilib, personifikatsiyani yuzaga keltirgan.

Allegoriya stilistik troplardan biri hisoblanib, u har qanday matnga badiiy bo'yoq berishda ishlatiladi. Shuningdek, allegorik vositalar so'zlovchining nutqini yanada boyitibgina qolmay, undagi qo'pol ma'noni yashirib, ajib ma'no hosil qiladi. Allegoriyaga turli xil ta'riflar keltira olamiz. Masalan, allegoriyani badiiy vosita deydigani bo'lsak, u ramzning bir ko'rinishi bo'lib, adabiy nutqqa rang barang ma'no beradi. Bundan tashqari, allegoriya stilistik trop bo'lib, u metafora, metonimiya, sinekdoxa o'xshatish kabi stilistik uslublarning bir turidir¹⁷.

Allegoriya (majoz) – bu mavhum tushuncha yoki g'oyalarni aniq, ko'pchilikka ma'lum obrazlar (narsa, jonivor, voqea) orqali ifodalash usuli. U badiiy tasvir vositasi bo'lib, ertak va masallarda, shuningdek, kinoya va qochirim sifatida qo'llanadi. Asosiy misollar: *tulki* (ayyorlik), *bo'ri* (ochko'zlik), *to'ti* (gapdonlik), *tarozi* (adolat). *Bir tulki yetti bo'rini yetaklar* – ushbu maqolda tulki obrazi yuqorida aytganimizdek, ayyorlik ramzi sifatida ishlatilgan. Aslida insonlar haqidagi maqoldir. Ayyor insonlar hiylanayrang bilan kuchli insonlarni ham aldab ketishlari haqida. *Zamoning tulki bo'lsa, sen tozi bo'l* – bu maqolda ham tulki obrazi ayyor ma'nosidadir.

Oksimoron (yunoncha *oxymoron* – “aqli ahmoqlik”, “keskin ahmoqlik”) – bir-biriga zid, qarama-qarshi ma'noli so'zlarni birikmasi orqali yangi, obrazli ma'no hosil qiluvchi badiiy tasvir vositasi. Ular mantiqan bir-birini inkor etsa-da, kontekstda o'ta kuchli ta'sirchanlik va tasviriy go'zallik beradi. Oksimoron so'zining o'zi ham yunonchadan tarjima qilinganda “aqli ahmoq” ma'nosini berib, so'zning o'zi bir paytda oksimorongga misol bo'ladi. Badiiy adabiyotda qahramonning ruhiy holati, ziddiyatli tuyg'ular yoki voqea-hodisalarning murakkabligini kuchaytirib ko'rsatish uchun ishlatiladi. Oksimoron asosida qo'yilgan asar nomlarini ko'plab uchratish mumkin. Masalan, “Tirilgan murda”, “Barhayot o'liklar”, “Issiq qor”.

Oksimoron xuddi antonim so'zlarga yoki antitezaga o'xshaydi. Lekin bunda qarama-qarshi ma'noli so'zlar matnning turli qismlarida emas, aynan yonma-yon kelib bitta tushunchani anglatadilar. Oksimoron hodisasini maqollarda ham uchratish mumkin. Ushbu vosita obrazli tasvirni yanada yorqinroq ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan: *Achchiq haqiqat –shirin yolg'ondan afzal*.

Demak, maqollarda badiiy tasvir vositalarni ko'plab ko'rish mumkin. Bunday vositalar uning ta'sirchanligini oshiradi, badiiy-estetik qiymatini ko'taradi, insonlarning xotirasida saqlanib qolishiga yordam beradi. Shu bilan birga estetik zavq ham olish mumkin. Shunday vositalar sababli, maqollar o'rnoqi, rang-barang va intonatsion butunlikni beradi.

¹⁷ Rajapova M., Allegoriya haqida umumiy tushunchalar. Allegorik vositalar dunyo tilshunoslari talqinida., International Journal of Philosophical Studies and Social Science, 124-b.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov N., Odilov Y., Ziyodullayeva G. O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar muassasalari uchun darslik. –Toshkent, 2018.
2. Maxmaraimova Sh. O'zbek tili metaforalarining antroposentrik tadqiqi: Filologiya fanlari doktori (Des) diss, avtoref. - Самарқанд, 2020.
3. Salixova N., Ingliz va o'zbek tilida ko'chimlarning tadqiq darajasi., Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti, 2025, 4.
4. Yo'ldoshev M., Muhamedova S., Saparniyozova M. O'quv qo'llanma. – Toshkent: 2021.
5. Madaminova M. Matn pragmatik tavsifida sintaktik birliklarning o'rni. – Toshkent, 2023.
6. Shermatova S., O'zbek tilida ma'no ko'chish usullari: metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, 2023.
7. Rajapova M., Allegoriya haqida umumiy tushunchalar. Allegorik vositalar dunyo tilshunoslari talqinida. https://api.scienceweb.uz/storage/publicat_124-126.pdf.
8. Харченко В. К. Литота в речевом жанре бытового разговора // Жанры речи. 2019. №4 (24).
9. Голуб И.Б. Стилистика русского языка – М., 1997 г.
10. <https://studfile.net/preview/1732076/page:9/>
11. <https://old.bigenc.ru/linguistics/text/2147913>